

**FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH TARTIB-TAOMILLARINI
TAKOMILLASHTIRISH: TIZIMLI MUAMMOLAR VA HUQUQIY YECHIMLAR**

Omonov Alim Tolibovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18359858>

Annotatsiya. Maqolada fuqarolikni rasmiylashtirish tartib-taomillarida uchraydigan tizimli muammolar normativ-huquqiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot fuqarolikni olish, tiklash va fuqarolik maqomini o'zgartirish bilan bog'liq ma'muriy protseduralarning huquqiy aniqligi, vakolatlar taqsimoti, hujjatlar talabi, muddatlar, dalillarni baholash, ma'muriy diskreksiya chegaralari va qarorlarni asoslantirish standartlarini baholaydi.

Amaliyotda kuzatiladigan asosiy muammolar sifatida protsedural shaffoflikning yetarli emasligi, idoralararo ma'lumot almashishning fragmentarligi, verifikatsiya jarayonlaridagi uzilishlar, arizachilar xabardorligining pastligi hamda shikoyat mexanizmlarining samaradorligi cheklanganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, nondiskriminatsiya, "due process" kafolatlari, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq risklar tizimli baholanadi. Yakunda fuqarolikni rasmiylashtirish protseduralarini standartlashtirish, soddalashtirish, raqamlashtirish va hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan konseptual takomillashtirish yo'nalishlari hamda amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolikni rasmiylashtirish; ma'muriy protsedura; protsessual muammo; normativ-huquqiy tahlil; ma'muriy diskreksiya; verifikatsiya; idoralararo integratsiya; due process; shikoyat mexanizmi; ma'lumotlar himoyasi.

Аннотация. В статье анализируются системные проблемы процедур оформления гражданства на основе нормативно-правового подхода. Исследование оценивает правовую определённость административных процедур приобретения, восстановления и изменения статуса гражданства, распределение компетенций, документальные требования, сроки, оценку доказательств, пределы административного усмотрения и стандарты мотивированности решений. К ключевым проблемам правоприменения отнесены недостаточная процедурная прозрачность, фрагментарность межведомственного обмена информацией, сбои в процессах верификации, низкая информированность заявителей и ограниченная эффективность механизмов обжалования. Отдельно рассматриваются риски соблюдения принципов недискриминации и due process, а также вопросы защиты персональных данных и информационной безопасности. В заключении предложены концептуальные направления совершенствования: стандартизация и упрощение процедур, цифровизация, усиление подотчётности и повышение качества правоприменения.

Ключевые слова: оформление гражданства; административная процедура; процедурные проблемы; нормативно-правовой анализ; административное усмотрение; верификация; межведомственная интеграция; due process; обжалование; защита данных.

Abstract. This article examines systemic challenges in citizenship formalization procedures through a normative legal lens. It assesses legal certainty in administrative processes for acquiring, restoring, and changing citizenship status, including mandate

allocation, documentary requirements, timelines, evidentiary assessment, limits of administrative discretion, and standards for reasoned decisions. Key implementation challenges identified include insufficient procedural transparency, fragmented inter-agency information exchange, disruptions in verification processes, limited applicant awareness, and weak appeal mechanisms.

The paper also addresses non-discrimination and due-process safeguards, as well as personal data protection and information security risks. The article concludes with a reform concept focused on procedural standardization and simplification, digitalization, strengthened accountability, and improved quality of law enforcement.

Keywords: *citizenship formalization; administrative procedure; procedural challenges; normative legal analysis; administrative discretion; verification; inter-agency integration; due process; appeals; data protection.*

Fuqarolikni rasmiylashtirish shaxsning huquqiy maqomini belgilovchi, davlat suvereniteti va migratsiya boshqaruvi bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim ma'muriy institutdir. Ushbu jarayonning legitimligi va ijtimoiy ishonchi, avvalo, protsedural adolat, huquqiy aniqlik, shaffoflik hamda samarali shikoyat mexanizmlariga tayanadi. Amaliyotda esa hujjatlar talabi, verifikatsiya, idoralararo ma'lumot almashish, muddatlar va qarorlarni asoslashdagi tafovutlar fuqarolarning huquqlarini ta'minlashda va xizmat sifatida turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Fuqarolikni rasmiylashtirish jarayoni bugungi kunda davlatlararo migratsiya jarayonlarining kuchayishi, globallashuv va xalqaro huquqiy majburiyatlarning rivojlanishi bilan bog'liq holda o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Yangi O'zbekistonda fuqarolikni rasmiylashtirish jarayoni turli huquqiy, ma'muriy va ijtimoiy omillar bilan murakkablashib, ayrim holatlarda insonlarning huquqlari va manfaatlarini samarali himoya qilishda muammolarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, qonunchilikdagi bo'shliqlar, byurokratik to'siqlar va rasmiylashtirish jarayonining uzoq davom etishi ayrim shaxslarning fuqarolikka erishishini qiyinlashtirib qo'ymoqda. Shuningdek, sud va ma'muriy organlarning fuqarolik masalalaridagi qarashlarining bir xil emasligi ham muammolardan biridir.

Bunday vaziyatlar fuqarolik huquqlarining samarali himoyasini ta'minlash, insonlarning huquqiy maqomini aniqlash va fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirishni talab qiladi. Bu muammolarni chuqur o'rganish va tahlil qilish, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish O'zbekistonda fuqarolik masalalarini hal qilish tizimini takomillashtirishga, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

“O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Qonuniga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli himoya qilish, fuqarolik masalalarini ko'rib chiqishda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, vatandoshlarimizni mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash jarayoniga faol jalb etish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga oid masalalarni ko‘rib chiqishning yangilangan tartibini belgilash to‘g‘risida”gi farmoni¹ qabul qilindi.

Mazkur Farmon fuqarolikni rasmiylashtirish jarayoni bilan bog‘liq quyidagi asosiy jihatlar bilan ahamiyatlidir. Jumladan:

birinchidan, Farmonga muvofiq, fuqarolikka qabul qilish, fuqarolikdan chiqish va fuqarolikni tiklash kabi jarayonlar soddalashtirildi. Jumladan, vatandoshlar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun soddalashtirilgan tartibda fuqarolikka qabul qilish yo‘lga qo‘yildi. Bu mexanizmlarning joriy etilishi fuqarolikka murojaat qiluvchilar sonini oshirib, rasmiylashtirish jarayonini tezlashtiradi;

ikkinchidan, Farmonga muvofiq, barcha fuqarolik masalalari “E-Fuqaro” elektron tizimi orqali ko‘rib chiqiladi. Bu tizim turli davlat organlari o‘rtasida ma‘lumot almashinuvini ta‘minlaydi, fuqarolikka oid hujjatlarning elektron ro‘yxatini yaratadi va tekshirish jarayonini tezlashtiradi. Shu orqali byurokratik to‘siqlar kamayishi va jarayonning shaffofligi ta‘minlanishi ko‘zda tutilgan;

uchinchidan, Farmon fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilish tartibini soddalashtirishga yo‘naltirilgan. Ushbu shaxslar belgilangan shartlarga ko‘ra fuqarolikka qabul qilinadi, bu ularga qonuniy maqom berish imkonini beradi;

to‘rtinchidan, Farmonga muvofiq, fuqarolik masalalari bo‘yicha Komissiya tashkil etildi. Komissiyaning vazifasi arizalarni ko‘rib chiqish va tegishli qarorlar qabul qilishdan iborat. Komissiya tomonidan hujjatlarning to‘g‘riligi va ariza beruvchilarning fuqarolikka qabul qilinishi uchun mosligini tekshirish yuzasidan aniq talablar belgilandi;

beshinchidan, Farmonda fuqarolikka oid iltimosnomalar va arizalarni ko‘rib chiqish muddatlari belgilab berildi. Bu fuqarolikka qabul qilish jarayonini tezlashtirishga xizmat qilishi kerak. Lekin amalda bu muddatlarga rioya qilishda muammolar saqlanib qolishi mumkin;

oltinchidan, Farmonga ko‘ra, fuqarolikka oid masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar ariza beruvchilarga yetib borishi uchun belgilangan muddatlarda tegishli xabarlar berilishi lozim.

Bu jarayonning shaffofligini va davlat organlari o‘rtasidagi mas‘uliyatni oshiradi.

Ushbu yangilangan mexanizmlar fuqarolik masalalari bilan bog‘liq jarayonlarni tezlashtirish, qonuniy asosda soddalashtirish va fuqarolarning huquqiy maqomini aniqlashga qaratilgan. Mazkur mexanizmlarning samarali ishlashi fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonining sifatini oshirish va davlat xizmatlari samaradorligini ko‘tarishga yordam beradi.

Zotan, fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi milliy normativ-hujjatlarning samaradorligi sohani rivojiga, aholi manfaatlarini har tomonlama huquqiy himoya qilishga xizmat qiladi.

Xususan, ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyati shaffofligini ta‘minlash, mazkur sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda, aholiga qulayliklar yaratish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023-yil 31-iyulda “Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga oid masalalarni ko‘rib chiqishning yangilangan tartibini belgilash to‘g‘risida”gi PF-6185-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5325578>.

shuningdek, avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 321-son qarori²ning qabul qilinganligi fikrimiz tasdig'idir.

Shu o'rinda, *bugungi kunda mazkur qabul qilingan qarorning jamiyat hayotidagi ijobiy va salbiy jihatlari nimalardan iborat? Fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq maxalliy va horijiy olimlarning ilmiy qarashlari qanday?* degan o'rinli savol yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha, "Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, shuningdek, avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 321-son qarori³ bilan qator reglament, tartib va majburiyatlar belgilandi. Bularga:

a) fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash joyiga borib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti;

b) fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash joyiga borib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatilishida ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlarining hamda murojaat etuvchilarning huquq va majburiyatlari;

v) fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash joyiga borib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatilishi uchun murojaat qilish tartibi;

g) fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash joyiga borib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish kabi tartiblar shular jumlasidandir.

Shu o'rinda, mazkur qabul qilingan normalarning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy jihatdan yoritib o'tish mazkur paragrafda yoritilishi nazarda tutilgan dolzarb muammolardan biridir. Xususan, *ijobiy jihatlarga:*

birinchidan, qaror asosida migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq xizmatlarni fuqarolarning yashash joyida amalga oshirish tartibi joriy etildi. Bu fuqarolarning davlat idoralariga borish majburiyatini qisqartirib, xizmat olish jarayonini yanada soddalashtirdi.

Ayniqsa, ushbu isloxot ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlari uchun muhim bo'lib, ular qo'shimcha to'lovsiz xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'ldi;

ikkinchidan, davlat xizmatlarini amalga oshirish jarayonida planshetlar, kompyuterlar va mobil ilovalar kabi texnik vositalardan foydalanish jarayonning samaradorligini oshirdi.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023-yil 31-iyulda "Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, shuningdek, avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 321-son qarori // <https://lex.uz/docs/6555207>.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023-yil 31-iyulda "Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, shuningdek, avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 321-son qarori // <https://lex.uz/docs/6555207>.

Shu bilan birga, fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlari uchun elektron ariza berish va uni onlayn tarzda kuzatish imkoniyati zamonaviy davlat boshqaruvi uslublari va raqamli transformatsiyani keng qo'llash imkonini berdi;

uchinchidan, qaror byurokratik jarayonlarni soddalashtirishga qaratilgan bo'lib, davlat xizmatlari uchun zarur hujjatlar to'plamining elektron tizim orqali tekshirilishi davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni oshirib, xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qildi;

to'rtinchidan, Qaror aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun to'lovlardan ozod qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Bu ularga fuqarolik va migratsiyaga oid masalalar bo'yicha qulay shart-sharoitlarda davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Ma'lumot uchun⁴, 2024-yilning 9 oyi mobaynida fuqarolar tomonidan yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va davlat xizmatlari markazlari orqali kelib tushgan jami 1 mln 314 ming 51 ta so'rovlar qayta ishlandi. Shulardan, doimiy yashash joyi bo'yicha ma'lumot olish 1 mln. 88 ming 883 ta, doimiy yashash joyida ro'yxatdan o'tib yashovchilar to'g'risida ma'lumot olish 393 ming 551 ta, manzil-ma'lumot axborotlarini olish 58 ming 567 ta, MvaFR bo'linmalariga elektron navbatga turish 12 ming 39 ta, ID-karta olish bo'yicha ariza berish 60 ming 866 ta, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish bo'yicha 81 ta, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish bo'yicha 64 ta.

Shuningdek, mazkur Qarorning amalda qo'llash bilan bog'liq nazariy jihatlarini ilmiy tahlil qilar ekanmiz quyidagi salbiy jihatlarini aniqlandi. Bularga:

birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonida internet aloqasi yoki texnik qurilmalardagi nosozliklar sababli ba'zi fuqarolar xizmatlardan o'z vaqtida foydalanolmasligi mumkin. Bu qishloq hududlarida internetga kirish imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun muammo tug'dirishi mumkin;

ikkinchidan, fuqarolarning yashash joyiga borib xizmat ko'rsatish tizimi barcha hududlarda bir xil darajada samarali tashkil qilinmasligi mumkin. Ayniqsa, chekka hududlardagi davlat xizmatlari ko'rsatuvchi xodimlarning yetkazib borishini ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun resurslar cheklangan bo'lishi ehtimoli bor;

uchinchidan, qarorda ayrim fuqarolarga qo'shimcha to'lov asosida xizmat ko'rsatilishi nazarda tutilgan. Bu ayrim ijtimoiy guruhlar uchun xizmatlarni olishda qiyinchiliklar yaratishi mumkin, chunki qo'shimcha to'lovlar ularning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

uchinchidan, qarorni amalda joriy etish jarayonida davlat xizmatlarini taqdim etishga oid tartiblarning haddan tashqari murakkablashuvi yoki uning qonuniy bazasidagi bo'shliqlar xizmatlarni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Fikrimizcha, qaror fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, uning to'g'ri amalga oshirilishi uchun zarur qonunchilik va texnik shart-sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan 2024-yilning 9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tayyorlagan ma'lumotnomasi

Shu o'rinda, bugungi kunga qadar fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq muammolarning u yohud bu nazariy jihatlar qaysi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy jihatdan kompleks tadqiq etilganligini o'rganish ishimizning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada orttiradi.

Xususan, mahalliy huquqshunos olimlardan A.X.Saidov⁵, J.Yu.Sadullayev⁶, X.T.Odilqoriyev, Sh.N.Berdiyarov, I.E.Xojanazarov va B.Ochilov⁷, Dj.Yuldashev⁸, D.S.Akramxodjayeva⁹, J.Goyibov¹⁰ va boshqalar tomonidan fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq milliy va xalqaro normalar, fuqarolikni huquqiy kafolati bo'lgan standartlar, mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilish, pasport tizimini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar ilmiy jihatdan o'rganilgan. Jumladan, Dj.Yuldashev "mamlakatimizda ham fuqarolikka doir ishlarni yuritishning xalqaro huquq normalari va jamiyat hayotiga qay darajada mosligini hamda amal qilishini kuzatib borish hamda monitoring qilish mazkur jarayonni samarali ta'minlash mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Shu bois uni ta'minlashga doir faoliyatni huquqiy tartibga solish"¹¹ masalasini muammo sifatida ilmiy tahlil qilgan.

Bizning fikrimizcha Dj. Yuldashevning fuqarolikka doir ishlarni yuritishda xalqaro huquq normalari va milliy qonunchilik uyg'unligini ta'minlash haqidagi qarashlari zamonaviy qonunchilikda muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuv davlatga fuqarolik masalalarini hal etishda xalqaro huquq normalariga rioya qilish orqali inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, monitoring jarayoni qonunchilik va amaliy holatlar o'rtasidagi bo'shliqlarni yopishga yordam beradi, bu esa davlatning huquqiy tizimini xalqaro maydonda mustahkamlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq muammoli holatlarni mahalliy olimlar bilan bir qatorda bir qator xorijiy olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, S.A.Avakyan¹², Yu.A.Dmitriyev¹³, O.O.Mironov¹⁴, V.I.Vasilyev¹⁵, N.F.Vorobyev¹⁶,

⁵ Saidov A.X., Inson huquqlariga oid asosiy hujjatlar to'plami / – T., 2013. – B. 31.

⁶ Sadullayev J. Yu. Fuqarolikning milliy va xalqaro huquqiy asoslari: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 2011. – B.

⁷ Konstitutsiyaviy huquq / X.T. Odilqoriyev, Sh.N. Berdiyarov, I.E. Xojanazarov. – T., 2013. – B. 39.; 7.; Odilqoriyev X., Ochilov B. Hozirgi zamon xalqaro huquqi. – T., 2002. – B. 119.

⁸ Yuldashev Dj.X., O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga doir ishlarni yuritishni optimallashtirish. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. — 2019. — № 3. – B. 129.

⁹ Akramxodjayeva D.S. O'zbekiston Respublikasi huquqiy siyosatining dolzarb muammolari: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T.: TDYUI, 2012. – B. 4.

¹⁰ Goyibov J., O'zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlarini ma'muriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish: Yurid. fan. (Phd). ... dis. avtoref. – T.: Berdax nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti, 2022. – B. 24.

¹¹ Yuldashev Dj.X., O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga doir ishlarni yuritishni optimallashtirish. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. — 2019. — № 3. – B. 130.

¹² Avakyan S.A. Grajdanstvo Rossiyskoy Federatsii. - M.: Ros. yurid. izd. dom, 1994.

¹³ Dmitriyev Yu.A. Pravovoye polojenie cheloveka i grajdanina v Rossiyskoy Federatsii. - M.: 1992; Kommentariy zakonodatelstva gosudarstv-uchastnikov SNG o grajdanstve. (Avtor MISKEVICH A.V.). -M.: Yurid. lit, 1996.

¹⁴ Mironov O.O. Rossiyskoye grajdanstvo i prava cheloveka. - Predstavitelnaya vlast: monitoring, analiz, informatsiya. - 1996, № 6-7, s. 55-62.

¹⁵ Vasilyev V.I. Grajdanstvo posle raspada SSSR. - Narodnyy deputat, 1992, № 18, s. 8-14.

¹⁶ Vorobyev N.F. Voprosy grajdanstva v Rossiyskom federativnom gosudarstve. - V kn.: "Rossiyskaya gosudarstvennost: sostoyaniye i perspektivy razvitiya". - M.: 1995, s. 129-139; Shafir M.A. Grajdanstvo

M.A.Shafir¹⁷, O.G.Bryansev¹⁸, O.Yu.Malinova¹⁹, R.Ketchem²⁰, M.Djenis, R.Key, E.Bredli²¹, M.V.Varlvn-Bevz²², T.Ye.Shingirey²³ va boshqalar tomonidan fuqarolik, uni rasmiylashtirish muammolari, fuqarolik normalarini tartibga solishga oid rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Shu bilan birga, xorijlik olimlardan Jan Tinkler o'z tadqiqotlarida davlat boshqaruvida fuqarolik masalalarini samarali tartibga solish mexanizmlarini yaxshilashga e'tibor qaratgan bo'lsa, Peter J. Spiro esa, globalizatsiya va xalqaro migratsiyaning fuqarolikka ta'sirini o'rganishga qaratgan. Shuningdek, Thomas Faist transnatsional migratsiya va davlatlararo fuqarolik munosabatlarini chuqur o'rgangan bo'lsa, Astrid Lindström esa, Yevropa mamlakatlarida fuqarolikni rasmiylashtirishda yuzaga keladigan byurokratik to'siqlar va raqamlashtirish jarayonlarini tadqiq etgan.

Mazkur olimlar tomonidan fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi muammolarni chuqur o'rganish va ularni hal etish yo'nalishida ilgari surilgan fikrlariga qo'shilamiz. Chunki, Yan Tinklarning fuqarolikni davlat boshqaruvining boshqa sohalari bilan integratsiya qilish bo'yicha fikrlarini qo'llab quvvatlaymiz. Bizningcha, *Yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolik masalalarini boshqa davlat idoralari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yilishi fuqarolik masalalarini migratsiya, sud va boshqa davlat organlari bilan bog'lab, davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish jarayonlarni tezlashtiradi va byurokratik to'siqlarni qisqartirishga xizmat qiladi*. Bu jarayonlar fuqarolikni tez va samarali rasmiylashtirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Shuningdek, Piter Spironing fuqarolikni globalizatsiya va xalqaro migratsiya bilan bog'lash yuzasidan g'oyalari ham dolzarb ahamiyatga egadir. Darhaqiqat, globalizatsiya jarayonlari nafaqat xorijiy davlatlarni, balki O'zbekistonda ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda va

Rossiyskoy Federatsii i yego zakonodatelnoye regulirovaniye. - V kn.: "Konstitutsionnyy stroy Rossii". - M.: 1992, вып. 1, s. 105-114 i dr.

Bryansev O.G. Grajdanstvo Rossiyskoy Federatsii. Avtoref. dis. na soisk. uchen, stepeni kand. yurid. nauk. - M.: Rossiyskaya akademiya upravleniya, 1993; Ibraimov U.S. Teoreticheskiye aspekty instituta gosudarstva i yego zakonodatelnoy

¹⁷ Shafir M.A. Grajdanstvo Rossiyskoy Federatsii i yego zakonodatelnoye regulirovaniye. - V kn.: "Konstitutsionnyy stroy Rossii". - M.: 1992, вып. 1, s. 105-114.

¹⁸ Bryansev O.G. Grajdanstvo Rossiyskoy Federatsii. Avtoref. dis. na soisk. uchen, stepeni kand. yurid. nauk. - M.: Rossiyskaya akademiya upravleniya, 1993;

¹⁹ Malinova O.Yu. Grajdanstvo, prava cheloveka i izmenchivyye vektory modernizatsii //Proyekt "Buduyee prav cheloveka" <http://www.pgpalata.ru/reshr/grow/09.shtml>.

²⁰ Ketchem R. Grajdanstvennost i demokraticeskoye pravleniye //http ://usinfo.state.gov/j ournals/itdhr/1205/ij dr/ketcham.htm

Djenis M., Key R., Bredli E. Yevropeyskoye pravo v oblasti prav cheloveka.Praktika i kommentarii.M.-Budapesht, 1997. S.117.

Varlvn-Bevz M.V. Sravnitelnyy analiz zakonodatelstva o grajdanstve stran SNG.//Avtoreferat dissert. kand. yurid. nauk.M., 1999.S. 19; Shingirey T.Ye. Institut grajdanstva Rossiyskoy Federatsii. //Avtoreferat dissert. kand. yurid. nauk. M., 1997. S.13, vstupleniya v Sovet Yevropy, Yevropeyskoy konvensii o grajdanstve 1997 g.

²¹ Djenis M., Key R., Bredli E. Yevropeyskoye pravo v oblasti prav cheloveka.Praktika i kommentarii.M.-Budapesht, 1997. S.117.

²² Varlvn-Bevz M.V. Sravnitelnyy analiz zakonodatelstva o grajdanstve stran SNG.//Avtoreferat dissert. kand. yurid. nauk.M., 1999.S. 19.

²³ Shingirey T.Ye. Institut grajdanstva Rossiyskoy Federatsii. //Avtoreferat dissert. kand. yurid. nauk. M., 1997. S.13, vstupleniya v Sovet Yevropy, Yevropeyskoy konvensii o grajdanstve 1997 g.

xalqaro migrantlar yoki xorijda ishlayotgan O'zbekistonliklar sonining oshib borishi fuqarolik masalalarini murakkablashtirmoqda. Fikrimizcha, xalqaro migratsiya jarayonlarining fuqarolikni olishdagi ta'sirini inobatga olib, *O'zbekistonda qonunchilikni global tendensiyalar bilan muvofiqlashtirish, xalqaro migratsiya jarayonlarini yaxshiroq o'rganish va bu jarayonlarda fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.*

Yuqorida keltirib o'tilgan Faustning fikrlariga qo'shilgan holda ta'kidlashimiz mumkinki, transnatsional migratsiya O'zbekistondagi fuqarolikni rasmiylashtirish muammolarini samarali hal etish masalasini yanada dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. *Transnatsional migrantlar fuqarolikka doir masalalarda ikki yoki ko'p davlat bilan huquqiy munosabatlarga kirishi mumkin. Bu vaziyat fuqarolik qonunchiligida yangi mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi, ayniqsa, migrantlarning huquqiy maqomini aniqlashdagi muammolarni hal etish uchun.*

Shu bilan birga, Astrid Lindstryomning Yevropa mamlakatlarida fuqarolikni rasmiylashtirishdagi byurokratik to'siqlarga oid fikrlarini tahlil qilar ekanmiz, fikrimizcha, O'zbekistonda ham byurokratik to'siqlar fuqarolikka erishishni murakkablashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Bizningcha, *davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish va elektron tizimlar orqali fuqarolikni soddalashtirish byurokratik muammolarni sezilarli darajada qisqartirishga yordam beradi.*

Tadqiqot ishida tahlil qilingan fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi milliy qonunchilikni, shuningdek, mazkur sohadagi milliy va xorijiy olimlarning qarashlarini qiyosiy huquqiy tahlil qilish orqali mamlakatimizda fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq jarayonlarda quyidagi bir qator muammolarni kengroq tahlil qilishimiz mumkin. Xususan:

birinchidan, fuqarolikni olish va tiklash jarayonida hali ham qator byurokratik muammolar mavjud. Har bir shaxsdan fuqarolikni olish uchun ko'plab hujjatlarni to'plash, ularni turli davlat idoralariga taqdim etish talab etiladi. Sohaga oid qonunchilik bu jarayonlarni soddalashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, amalda hujjatlarni qabul qilish va ko'rib chiqishda uzoq muddatlar talab etilishi hali ham muammo bo'lib qolmoqda. Bu, ayniqsa, qishloq joylardagi aholi uchun murakkab jarayon bo'lib, davlat idoralariga doimiy ravishda murojaat qilish imkoniyati cheklangan;

ikkinchidan, mamlakatimizda **“Fuqaro”** tizimi fuqarolik masalalarini ko'rib chiqishda davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvini osonlashtirish va jarayonlarni tezlashtirish uchun joriy etilgan. Ammo amalda bu tizimning samaradorligi yetarli darajada emas. Tizimdagi texnik muammolar yoki ma'lumotlarni noto'g'ri kiritish sababli fuqarolarning arizalari kechikishi mumkin. Bu ayniqsa, fuqarolikni olish yoki tiklash jarayonida ma'lumotlarning to'g'ri kiritilmaganligi yoki tekshiruv jarayonidagi nosozliklar sababli jarayonning cho'zilishiga olib keladi.

uchinchidan, fuqarolikni olish yoki tiklash uchun talab etiladigan ma'lumotlarni tekshirishda turli davlat idoralari, jumladan, ichki ishlar organlari, xavfsizlik xizmatlari va boshqa davlat muassasalari ishtirok etadi. Bu idoralar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi sekin kechishi sababli arizalarning ko'rib chiqilishi uzoq vaqt davom etishi mumkin. Sohaga oid milliy qonunchilikda belgilangan muddatlarga rioya qilishda hali ham muammolar mavjud va bu jarayon fuqarolar uchun qiyinchilik keltirib chiqaradi;

to'rtinchidan, sohaga oid milliy qonunchilikda soddalashtirilgan tartibda fuqarolikni olishni nazarda tutsa-da, bu tartibdan foydalanish faqat ayrim toifadagi shaxslarga qaratilgan.

Masalan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki O'zbekistonda uzoq vaqt yashab kelgan shaxslar uchun bu tartib faqat ma'lum talablar asosida amal qiladi. Shu sababli, barcha fuqarolar uchun bir xil imkoniyatlar yaratilmagan va bu fuqarolikni olishda qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin;

beshinchidan, fuqarolikdan chiqish masalalari ham ancha murakkab. Sohaga oid milliy qonunchilikda fuqarolikdan chiqish bilan bog'liq talablar va sharoitlar belgilangan bo'lsa-da, amalda bu jarayon ham uzoq muddatli va byurokratik to'siqlarga to'liq bo'lishi mumkin.

Arizalarni ko'rib chiqish jarayonida hujjatlarni to'g'ri topshirish, tekshirish va tasdiqlash uzoq vaqt talab qiladi;

oltinchidan, sohaga oid milliy qonunchilikda xorijdagi vatandoshlar uchun ham fuqarolik masalalarini soddalashtirishni nazarda tutgan. Ammo konsulliklar orqali fuqarolikka ariza berish yoki hujjatlarni topshirish jarayonlarida qator qiyinchiliklar mavjud. Konsullik xizmatlarining yetarlicha rivojlanmaganligi yoki hujjatlarni konsullik orqali topshirish jarayoni uzoq davom etishi xorijdagi fuqarolar uchun muammo tug'diradi. Bundan tashqari, ko'plab vatandoshlar "E-Fuqaro" tizimi orqali o'z arizalarini onlayn kuzatish imkoniyatiga ega emaslar;

yettinchidan, sohaga oid milliy qonunchilik fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston fuqaroligini tan olish tartibini yengillashtirishga qaratilgan. Ammo bu jarayonda ham qator talablar va cheklovlar mavjud. Ko'plab shaxslardan hujjatlar talab qilinadi va bu jarayonni uzaytirishi mumkin. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun fuqarolikni olish qonuniy jihatdan murakkabliklar tug'diradi.

O'zbekistonda fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun sohaga oid milliy qonunchilik joriy etilgan bo'lsa-da, amalda hali ham bir qator qiyinchiliklar mavjud. Byurokratik to'siqlar, hujjatlarni uzoq vaqtda ko'rib chiqish, "E-Fuqaro" tizimining to'liq ishlamasligi va xorijdagi fuqarolar uchun imkoniyatlar yetishmasligi kabi muammolar fuqarolikni olish va tiklash jarayonlarini murakkablashtirmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekistonda fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonida keltirib o'tilgan muammolarni hal etish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasi mazmuniga quyidagi tahrirdagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

22-modd. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklash

Agar ilgari O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxsning fuqaroligi ushbu Qonun 25-moddasi birinchi qismining "a" va "g" bandlariga muvofiq yo'qotilgan bo'lmasa, u O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklash to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqiga ega. Iltimosnomada O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilish sabablari ko'rsatiladi.

Tiklash to'g'risidagi iltimosnomalar elektron shaklda ham topshirilishi va "Ye-Fuqaro" elektron tizimi orqali rasmiylashtirilishi mumkin. Murojaatni ko'rib chiqish muddati 3-6 oydan oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini bir martadan ortiq tiklashga yo'l qo'yilmasligi mumkin, lekin ayrim maxsus holatlarda (inson huquqlarining buzilishi yoki xato yoki nochor holatlarda fuqarolikdan chiqish holatlarida) qayta murojaat qilishga imkon beriladi".

Mazkur taklif kelajakda **birinchidan**, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirishga. Bunda:

- fuqarolikni tiklash uchun talab etiladigan hujjatlar sonini kamaytirish. Masalan, bu hujjatlar orasida shaxsni tasdiqlovchi asosiy hujjat va O'zbekiston Respublikasida ilgari bo'lgan fuqarolik maqomini tasdiqlovchi ma'lumotlar yetarli bo'lishi mumkin. Hozirda hujjatlar ko'p bo'lishi jarayonni murakkablashtirib, uzoq vaqt talab qiladi;

- shaxs o'z fuqaroligini tiklash uchun elektron tizimlar orqali ariza topshirishi mumkin. Bu jarayonda "Ye-Fuqaro" tizimidan foydalanish yoki elektron hujjatlar almashinuvi tizimini keng joriy etish zarur. Bu taklif hujjatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish jarayonini tezlashtiradi.

ikkinchidan, tiklash muddatlarini qisqartirishga. Bunda:

- 22-moddada fuqarolikni tiklash bo'yicha murojaatni ko'rib chiqish muddatlarini belgilash lozim. Masalan, fuqarolikni tiklash bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish muddati aniq 3-6 oy ichida belgilanishi mumkin. Bu jarayonning cho'zilishini kamaytirib, fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal qilishga yordam beradi.

uchinchidan, byurokratik jarayonlarni optimallashtirishga. Bunda:

- tiklash jarayonida turli davlat organlari (masalan, ichki ishlar vazirligi, migratsiya organlari va boshqalar) o'rtasida ma'lumot almashinuvi avtomatik tizimlar orqali amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonning tezkorlik bilan o'tishiga yordam beradi va byurokratik to'siqlarni kamaytiradi. Masalan, 22-moddaga qo'shimcha kiritib, davlat idoralari o'rtasida ma'lumot almashish jarayonining elektron tartibda amalga oshirilishi shartligini ko'rsatish mumkin.

to'rtinchidan, ikkinchi marta fuqarolikni tiklashga. Bunda:

- hozirgi 22-moddada fuqarolik bir marta tiklangandan keyin qayta tiklanishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu cheklovni qayta ko'rib chiqish mumkin. Masalan, ayrim maxsus holatlarda (*inson huquqlari buzilganda, xato yoki nochor holatlarda fuqarolikdan chiqish holatlari*) qayta tiklash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish mumkin.

beshtinchidan, murojaatlarning elektron kuzatuvini ta'minlashga. Bunda:

- ariza bergan shaxslar uchun o'z iltimosnomalarining ko'rib chiqilish jarayonini elektron tartibda kuzatib borish imkoniyati joriy etilishi lozim. Bu jarayonning shaffofligini ta'minlashga yordam beradi va fuqarolar o'z murojaatlarining qanday bosqichda ekanligini bilib turishadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonida milliy qonunchilikda belgilangan yangiliklar ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, hali ham huquqiy bo'shliqlar va kolleziya holatlar mavjud. Bu bo'shliqlarni to'ldirish va ziddiyatli holatlarni bartaraf etish uchun qonunchilikni yanada takomillashtirish, davlat organlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va elektron tizimlarni to'liq joriy qilish maqsadga muvofiq.

Fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonidagi muammolar asosan normativ aniqlikning yetarli emasligi, ma'muriy diskretsianing cheklari noaniqligi, hujjatlarni tekshirish va ma'lumot almashish tizimlarining integratsiyasi sustligi, shuningdek protsessual shaffoflik va shikoyat mexanizmlarining amaliy samarasi pastligi bilan izohlanadi.

Ushbu kamchiliklar “due process” kafolatlarini kuchaytirish, qarorlarni asoslantirish standartlarini joriy etish, xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirish va verifikatsiya jarayonini avtomatlashtirish, idoralararo yagona platforma orqali axborot almashishni yo‘lga qo‘yish bilan kamaytirilishi mumkin.

Natijada, fuqarolikni rasmiylashtirish protseduralari inson huquqlarini ta‘minlovchi, aniq va shaffof mezonlarga asoslangan, fuqaroga qulay hamda davlat manfaatlarini muvozanatda ushlab turadigan barqaror ma‘muriy tizimga aylanishi lozim.